

## **PAYG'AMBARIMIZNI YIG'LATGAN HODISALAR**

Insoniyat komiligining timsoli qilib yaratilgan Payg'ambarimiz ham nahotki ko'z yoshi to'kkan bo'lsalar? Qur'on va hadisda ko'z yoshi haqida nimalar deyilgan? Payg'ambarimiz va sahobalar ko'zyoshlarining sabablari nimada? Ushbu kitobni o'qib shu kabi savollarga to'la javob olasiz.

Muharrir:

**Nurulloh Muhammad RAUFXON**

So'ngso'z muallifi:

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Hamidulla BOLTABOEV**

© Sumayro MUROD

Muna MUROD

### **KO'Z YOSHI**

Tafakkur, zikr, Allohdan qo'rquv tufayli, xato, gunoh va isyonlar uchun to'kilgan bir tomchi ko'z yoshining inson qalbiga naqadar muhabbat, hayajon va nurli bir halayon berishi faqat qalb ahligagina ma'lum...

Bulbuldan so'rang gulning ishqini... Bu savdo va bu ishq bo'lmasa, nozli bulbul butun vujudi bilan kuylay olarmidi?!

Inson bulbul misoli ishqli va savdolidir. Allohga, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga, valiy, olim va shahidlarga muhabbati bor. Allohning rahmatini umid qilib, azobidan qo'rqadi. Nafs va shayton kabi, adashgan va shafqatsiz dushmanlar har on uni zalolat va otash tomon tortadilar.

Inson ojizligini va Rabbiga sig'inishini ko'z yoshlari bilan ifoda qiladi. Ko'z yoshi ojizlikka ishoradir. Ojizlik esa bandalikdir. Ya'ni, Rabbining azamati qarshisida ojizligini e'tirof etishi, kibr va g'ururdan xalos bo'lishi demakdir.

Ko'z yoshi qo'rquv va tafakkurdan kelsa, insonga oliylik va ma'naviy yuksaklik baxsh etadi.

"Ko'z yosh to'kish go'zal ekan, yosh to'kaylik", deb har yerda va har zamon yig'lash to'g'rimi? Har turli ibodatning ichiga fasod solgan nafs va shayton yig'iga ham aralashsa-chi?... Yig'iga riyo va sum'a aralashsa-chi?

Sevikli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ham yosh to'kkanlar. Faqat butun manbalarni taftishimizdan so'ng bilindiki, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam yashirin yig'laganlar. Yashirin yig'lashni tavsiya etganlar. Chunki, oshkora yig'iga kishining nafi aralashishi mumkin.

Shu sababli Allohning do'stlari o'z asarlarida oshkora yig'idan man qilganlar. Kechaning yarmida tanholik holatida istisnolik ko'rsatganlar.

## QUR'ONI KARIMDA KO'Z YOSH HAQIDA

Qur'oni karimda ko'zyosh to'kish bilan bog'liq bir necha oyat keladi. Mo'minning yig'lashi kulishidan ko'p bo'lishi kerakligi haqida Allohning tavsiyasi bor:

فَلْيَضْحَكُوا قَلِيلًا وَلْيَبْكُوا كَثِيرًا جَزَاءً بِمَا كَانُوا يَكْسِبُونَ ﴿٨٢﴾

"**Bas, o'zlarining kasb qilgan narsalari** (ya'ni, kofirlikni tanlaganlari) **jazosiga ular** (bu dunyoda) **oz kulsinlar**, (so'ngra oxiratda) **ko'p** (abadiy) **yig'lasinlar!**" (Tavba surasi 82-oyat mazmuni).

Ilm berilgan zotlarning barchasi ilohiy lutf o'laroq Allohning azamati qarshisida yig'laganlari haqida:

قُلْ ءَامِنُوا بِهِ ءَوْ لَا تُؤْمِنُوا ؕ إِنَّ الَّذِينَ أُوتُوا الْعِلْمَ مِنْ قَبْلِهِ إِذَا يُتْلَىٰ عَلَيْهِمْ يَخِرُّونَ لِلْأَذْقَانِ سُجَّدًا ﴿١٧﴾ وَيَقُولُونَ سُبْحَانَ رَبِّنَا إِنْ كَانَ وَعْدُ رَبِّنَا لَمَفْعُولًا ﴿١٨﴾ وَيَخِرُّونَ لِلْأَذْقَانِ يَبْكُونَ وَيَزِيدُهُمْ خُشُوعًا ﴿١٩﴾

"**Ayting:** "(Ey mushriklar), **sizlar** (xohlasangiz) **unga ishoninglar, xohlasangiz, ishonmanglar. Zotan,** (Qur'on nozil bo'lishidan) **ilgari ilm** (ya'ni, Tavrot) **berilgan kishilar ularga** (Qur'on) **tilovat qilingan vaqtida sajda qilgan hollarida yuzlari bilan yiqilurlar". Va ular: "Ey Pok Parvardigor! Albatta Parvardigorimizning** ("Men so'nggi Payg'ambarimni yuborurman va unga Qur'on nozil qilurman", degan) **va'dasi ado qilinguvchi va'dadir", deydilar. Ular yig'lagan hollarida, yuzlari bilan yiqilurlar va** (Qur'on) **ularning xokisorliklarini ziyoda qilur** (Isro surasi 107-109-oyatlar mazmuni).

Hamma payg'ambar ham yig'lagan. Ular ummatlari uchun yig'lashgan. Ummat ahlini ishlatmayotganidan yig'lashgan. Allohning ne'matlariga qarshi insonlarning nonko'rligiga yig'lashgan.

أُولَٰئِكَ الَّذِينَ أَنْعَمَ اللَّهُ عَلَيْهِمْ مِنَ النَّبِيِّينَ مِن ذُرِّيَّةِ آدَمَ وَمِمَّنْ حَمَلْنَا مَعَ نُوحٍ وَمِن ذُرِّيَّةِ إِبْرَاهِيمَ وَإِسْرَائِيلَ وَمِمَّنْ هَدَيْنَا وَاجْتَبَيْنَا إِذَا تُتْلَىٰ عَلَيْهِمْ آيَاتُ الرَّحْمَنِ خَرُّوا سُجَّدًا وَبُكِيًّا ﴿٥٨﴾

"(Ey Muhammad alayhissalom), **ana o'shalar** (ya'ni, Biz Sizga qissalarini so'ylab bergan kishilar) **Odam zurriyotidan bo'lgan** (Idris kabi), **Biz Nuh bilan birga** (kemada)

**ko'tarib** (to'fon balosidan najot bergan) **kishilardan bo'lgan** (Ibrohim kabi), **Ibrohim zurriyotidan bo'lgan** (Ismoil, Isxoq, Ya'qub kabi), **Isroil Ya'qub** (zurriyotidan bo'lgan Muso, Horun, Zakariyo, Yahyo va Iso kabi payg'ambarlardan) **va Biz xidoyat qilgan va tanlab olgan kishilardan iborat Allohning in'omiga sazovor bo'lgan zotlardir. qachon ularga Rahmon oyatlari tilovat qilinsa, sajda qilgan va yig'lagan hollarida yiqilurlar"** (Maryam surasi 58-oyat mazmuni).

Insonga yig'i va kulguni Allohning o'zi bergan. Marhamat irmoqlarini harakatga keltirgan, qo'rquv va rag'bat tuyg'ularini jo'shtirgan ham O'zidir.

وَصَدَّهَا مَا كَانَتْ تَعْبُدُ مِنْ دُونِ اللَّهِ إِنَّهَا كَانَتْ مِنْ قَوْمٍ كَافِرِينَ ﴿٤٣﴾

**"Albatta, kuldigan ham, yig'latgan ham Uning O'zidir"** (Najm surasi 43-oyat mazmuni).

Oxirini o'ylamay, kundalik arzimas narsalar bilan baxtli bo'lishga intilgan va bu yo'lda kulishi yig'isidan ko'p bo'lgan insonlarga Alloh taolo xitob qiladi:

وَأَنَّهُ هُوَ أَضْحَكَ وَأَبْكَى ﴿٤٣﴾

**"Kulasizlar-u, yig'lamaysizlar"**. (Najm, 60)

## HADISI QUDSIYDA KO'ZYOSH HAQIDA

Hadisi qudsiyda bir tomchi ko'z yoshining ming oltin sadaqa qilishdan ham fazilatli ekani bayon qilingan:

**"Sening Allohdan qo'rqib bir tomchi ko'zyosh to'kiishing, albatta, ming dinar sadaqa qilishingdan ham Menga sevimidir"** ("Ruhul-bayon ", 3/476).

## HADISI SHARIFLARDA KO'ZYOSH HAQIDA

Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam o'rni kelganida tishlarining oqi zo'rg'a ko'rinar darajada tabassum qilganlar. Qahqaha otib aslo kulmaganlar. **"Agar sizlar men bilganimni bilganlaringizda, oz kular va ko'p yig'lar edilaringiz"** (Dorimiy. "Sunan", 2619).

**"Muhammadning nafsi yadida bo'lgan Zotga qasam, agar sizlar men ko'rganlarni ko'rganlaringda, albatta, oz kular va ko'p yig'lar edilaring!"**

Sahobalar so'rashdi:

**"Yo Rasululloh! Nimani ko'rdingiz?"** (Muslim "Sahih", 636).

Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat etdilar:  
**"Jannat va jahannamni ko'rdim!"** (Muslim "Sahih", 646).

**"Yetti toifa kishilar bor, soya bo'lmagan qiyomat kunida Alloh ularni soyalantiradi: odil boshliqni; yoshligi Allohga ibodat bilan o'tganni; chiqqanidan qaytguniga qadar qalbi masjid bilan bog'liq bo'ladigan odamni; Alloh uchun bir-birlariga muhabbat qo'ygan zotlarni - ular Uning uchun to'planadilar, Uning uchun ayriladilar; yolg'iz qolganida Allohni zikr qilib ko'zyosh to'kkanni; chiroyli va obro'li bir ayol o'ziga chaqirganida "Men Allohdan qo'rqaman", deganni; sadaqani yashirin qilgan, hatto o'ng qo'li berganida so'l qo'li bilmagan (odamni)" ("Muvatto").**

Bu hadis bir oz farqli lafzlar bilan boshqa hadis kitoblarida ham zikr qilingan (Buxoriy, "Sahih", 620; Muslim, "Sahih", 1712; Termiziiy, 2213; Nasaiy, 5285; A?mad, "Musnad", 9288).

## **BOSHQA MAVJUDOTLAR HAM YIG'LAYDI**

Ko'zyosh to'kish faqat insonga xos emas. Boshqa mavjudotlar, jumladan, jinlar ham, bo'lak jonli va jonsizlar ham yig'laydi. Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ilk pallalarda xurmo og'ochiga suyanib xutba o'qir edilar. Keyin minbar tayyorlandi. U Zot minbarga chiqib xutba o'qiydigan bo'ldilar. Qurigan xurmo og'ochi esa bu ayriliqqa chidayolmadi, go'dak yig'isi kabi ovoz bilan yig'ladi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam minbardan tushdilar, kelib, go'dakni quchoqlagandek daraxtni quchoqladilar... Shundan so'ng og'och tinchlanib, yig'isini to'xtatdi.

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar: **"Agar men uni quchoqlamaganimda, albatta, qiyomatga qadar yig'lagan bo'lar edi"**("Ruhul bayon " tafsiri, 2-jild 104-sahifa).

## **YIG'INING SABABLARI**

Kishi o'n xil sababga ko'ra yig'laydi:

1. Sevinchdan.
2. Qayg'u va g'amdan.
3. Kelgan rahmatdan.
4. Qo'rquvdan.
5. Yolg'ondakam.
6. Jamoani o'ziga ergashtirish uchun.
7. Muhabbatdan jo'shib.
8. Biror og'riqdan.
9. Zulmdan va zaiflikdan.
10. Munofiqlik tufayli ("Ruhul bayon", 3/476-477).

Xulosa qilinsa, yig'i ikki xil bo'ladi: maqtalgan yig'i hamda qaytarilgan yig'i.

## **KITOB VA SUNNATGA UYG'UN BO'LMAGAN VA QAYTARILGAN YIG'I**

Ular quyidagilardir:

1. Riyokorlik bilan yig'lash.
2. Men haqimda gapirsinar deb yig'lash.
3. O'zini ahlulloh (Alloh do'sti) deb ko'rsatish uchun yig'lash.
4. Moddiy bir sabab bilan yig'lash.
5. Dunyoviy narsalar uchun yig'lash.
6. Mayyitga ovoz chiqarib yig'lash.
7. Qo'ldan ketganiga xafa bo'lib yig'lash.

Amallarda niyat juda muhimdir. Amallarning maqbul bulishi uchun ikki shart kerak:

1. Amalning Kitob va sunnatga uyg'un bo'lishi.
2. Niyat xolis Alloh uchun bo'lishi.

O'ziga ma'naviy bir maqom olish va xalqqa so'zini o'tkazish uchun yig'lashning hech bir qiymati yo'qdir.

Zero, Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: **"Muhaqqaq, amallar niyatlarga ko'radir. Har kimsaga faqatgina niyat qilgani (narsasi) bordir"**, deb marhamat qilganlar.

## **DUNYO UCHUN YIG'LASH**

Mo'minlar, aslida, moddiy yo'qlik yoki dunyoviy bir ish uchun yig'lamasliklari kerak. Borlikni va yo'qlikni beruvchi Allohdir.

O'likning orqasidan ham yig'lamasliklari va faryodu fig'on ko'tarmasliklari kerak. Ovoz chiqarmasdan rahmat ko'zyoshlari to'ksalar, joiz.

## **CHIROYLI VA MAQTALGAN KO'ZYOSHI**

Kitob va sunnatga uyg'un bo'lgan ko'z yoshi maqtalgandir. Bu kitobda quyidagi holatlarda yig'lash haqida bayon etamiz:

1. Gunohlariga yig'lash.
2. Xatolariga yig'lash.
3. Vaqtni bekor o'tkazganiga yig'lash.
4. Islomda mukammal yashay olmaganiga pushaymon bo'lib yig'lash.
5. Alloh qo'rquvida yig'lash.
6. Oxirat o'ylari bilan yig'lash.
7. Kur'oni karim o'kib yig'lash.
8. Din uchun yig'lash.
9. Yashirin yig'lash, insonlar ko'z o'ngida yig'lamaslik.

Najot va saodat yo'li insonning xatolariga yig'lashi orqali o'tadi: "Uqba ibn Omir roziyallohu anhu hazratlaridan rivoyat qilinadi. U kishi dedilar:

Men: **"Yo Rasululloh! Najot va saodat qaerda?"** deb so'radim.

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar:

**"Tilingni saqla! Uyingni keng ol! Xatpolaringdan yig'la!"** (Termiziy, 233).

## **ALLOHDAN QO'RQUV**

**"Alloh taolodan qo'rqib yig'lagan odam, sog'ilgan sut o'z joyiga qaytgunicha, jahannam otashiga kirmaydi (ya'ni, abadiyyan jahannamga kirmaydi). Alloh yo'lida qo'ngan chang bilan jahannam olovining tutuni jamlanmaydi"** (Nasa'iy, "Sunan", 3057).

## **QUR'ONI KARIMNI O'QIYOTIB YIG'LASH**

Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar:

**"Albatta, bu Qur'on qayg'u bilan nozil bo'ldi. Sizlar uni o'qiganingizda yig'langiz! Yig'lay olmasangiz, yig'laganday bo'lingiz!"** (Ibn Moja, 1337).

## **DIN UCHUN YIG'LASH**

Din uchun yig'lash haqida Janobimiz sollallohu alayhi va sallam bunday deganlar:

**"Din haqdor ahllar qo'lida bo'lganida yig'lamanglar! Lekin din noahllar qo'lida o'tganida, yig'langlar!"** (Ahmad, "Musnad", 23482).

Imom Busiriy (q.s.) hazratlari "Qasidai Burda"larida bunday deganlar: "Bas, haromlar bilan to'lgan ko'zlardan yosh to'k, pushaymonlikda parhezkor bo'l!" (23-bayt).

Harbutiy rahmatullohi alayh hazratlari bu baytning sharhi so'ngida bunday deganlar: "Agar darsingni o'qiyotganingda qaysi bir joyi qiyin kelsa, u yerni tushunishga qiynalsang, mana shu bayti sharifni o'qi. Alloh taoloning izni bilan, muhaqqaq, o'sha dars senga ochiladi va juda yaxshi tushunib olasan".

## **FARISHTALAR YIG'LASHNI O'LCHAY OLMAYDILAR**

Abu Hozim roziyallohu anhu deydilar: "Jabroil alayhissalom Janobimiz sollallohu alayhi va sallam huzurlariga tushdilar. Sahobalardan birlari yig'lar edi. Jabroil alayhissalom so'radilar:

-Bu kim?

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam iltifot qildilar:

-Bu falonchi.

So'ngra Jabroil alayhissalom:

-Odam bolalarining barcha amallarini o'lchay olamiz. Yig'lashlari bundan mustasno.

Albatta, Alloh taolo bir tomchi ko'z yoshi sababli jahannamdan dengizlarni so'ndiradi, - dedilar" (*Qurtubiy tafsiri, 17-sahifa, 113. "Dorul-fikr", Bayrut, 1415*).

## **JAHANNAM OTASHINI FAQATGINA KO'Z YOSHLARI SO'NDIRADI**

Rivoyat qilinishicha: «Qiyomat kuni tog'dek bir otash parchasi jahannamdan chiqib Muhammad sollallohu alayhi va sallam ummatlari tomon hujum qiladi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam ummatlarini bu olovdan qutqarmoqchi bo'ladilar. Olov esa hech o'chmaydi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam Jabroil alayhissalomni

chaqiradilar. Jabroil alayhissalom ozgina suv keltirib beradilar. Va: "Buni olov ustidan to'king!" deydi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam u ozgina suvni ummatlari ustiga kelayotgan olovga sepadi, olov darhol so'nadi. Shunda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Jabroil alayhissalomdan:

"Yo Jabroil, olovni darhol so'ndira olgan bu suv qanday suv edi?" deb so'raydilar.

Jabroil alayhissalom:

"Bu sizning ummatingiz to'kkan ko'z yoshlari, yolg'iz qolganlarida Alloh qo'rquvidan oqizgan ko'zyosh suvlari edi. Alloh taolo bu ko'z yoshlarini qiyomatga qadar saqlashimni menga buyurdi! Men ham Siz uchun muhofaza qildim", deydi».

## **PAYG'AMBARIMIZ SOLLALLOHU ALAYHI VA SALLAMNI YIG'LATGAN HODISALAR**

Koinot Sarvari sollallohu alayhi va sallam janobimiz faqat qudsiy sabablar bilan yig'laganlarini ko'ramiz:

1. Alloh qo'rquvidan;
2. Qur'oni karimni eshitib;
3. Alloh sevgisidan;
4. Vafot etgan kimsaga marhamatlaridan;
5. Ummatlariga bo'lgan shafqatlaridan yig'laganlar.

## **UMMATLARIGA SHAFQATLARIDAN YIG'LASHLARI**

Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anhu hazratlaridan rivoyat qiladi: "Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam hazratlari Ibrohim alayhissalom haqlaridagi:

رَبِّ إِيَّاهُنَّ أَضَلَّنَ كَثِيرًا مِّنَ النَّاسِ <sup>ص</sup> فَمَنْ تَبِعَنِي فَإِنَّهُ مِنِّي <sup>ص</sup> وَمَنْ عَصَانِي فَإِنَّكَ غَفُورٌ رَّحِيمٌ ﴿٣٦﴾

**"Parvardigorim, u butlar ko'pdan-ko'p odamlarni yo'ldan ozdirdilar. Bas, kim menga ergasha, ana o'sha mendandir (ya'ni, mening dinimdadir). Kim menga isyon qilsa, yana O'zing Mag'firatli, Mehribonsan (ya'ni, unday kimsalarni ham Haq Yo'lga hidoyat qilishga qodirsan)" (Ibrohim surasi 36-oyat mazmuni).**

Iso alayhissalom haqlaridagi:

إِنْ تُعَذِّبْهُمْ فَإِنَّهُمْ عِبَادُكَ <sup>ص</sup> وَإِنْ تَغْفِرْ لَهُمْ فَإِنَّكَ أَنْتَ الْعَزِيزُ الْحَكِيمُ ﴿١١٨﴾

**"Agar ularni azoblasang, ular Sening (ojiz) bandalaring. Agar ularni mag'firat qilsang, albatta Sen O'zning Qudrat, Hikmat egasidirsan" (Moida surasi 118-oyat mazmuni) oyatlarini ham tilovat qildilar.**

Keyin qo'llarini ko'tarib: "Allohim! Ummatim, ummatim..." deb yig'lay boshladilar. Alloh taolo Jabroil alayhissalomga amr qildi; "Ey Jabroil! Rasulim Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yoniga bor! Rabbing uning nima uchun yig'laganini yaxshi biladi, sen undan nima uchun yig'laganini so'ra!"

Jabroil alayhissalom Janobimiz sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelib, nima uchun yig'laganlarini so'radilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Jabroil alayhissalomga sababini aytdilar. Har narsani yaxshi biluvchi Alloh taolo Jabroil alayhissalomga amr qildi: "Ey Jabroil! Muhammadning yoniga bor! Unga: "Albatta, Biz yaqinda ummating haqidagi narsadan seni rozi qilamiz va seni unutmaymiz", degin!" (Muslim, "Sahih", 301).

## **JANOBIMIZ SOLLALLOHU ALAYHI VA SALLAMNING ANSORLAR UCHUN YIG'LASHLARI**

Said ibn Yazid roziyallohu anau aazratlaridan rivoyat qilinadi: «Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Hunayn jangi oxirida Havozin qabilasidan olingan g'animatni tarqatdilar. Uni Makka axlidan qurayshiyalar va boshqalar olishdi. Ansorlar bundan bir oz xafa bo'lishdi. Bundan xabar topgan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ansorlar bo'lgan joyga bordilar va: "Ansorlardan bo'lmagan kishilar chiqib turishsin, - deb buyurdilar. So'ng Janobimiz sollallohu alayhi va sallam shahodat va Allohga hamdu sanolar aytib, bunday dedilar: - Ba'zi kishilarni tanlab, ularga g'animat berganim haqidagi so'zlaringizdan xabarim bor. Bu ishning sababi ularning qalbini Islomga moyil qilish edi. Shoyad ular bundan so'ng shahodatga keladilar va Alloh ularning qalblarini Islomga bog'laydi" - Va yana davom etib, marhamat qildilar: - Ey ansorlar jamoasi! Alloh taolo sizlarga imon bergani bilan minnatli emasmi? Sizlarni mukarram va Islomga xizmat qilishdek sharaf bilan xos kishilaridan qilmadimi? Alloh taolo sizlarni ismlarning eng go'zali - "Ansorulloh" (Allohning yordamchilari), "Ansori Rasulillah?" (Alloh Rasulining yordamchilari) ismlari bilan atamadimi? Agar hijrat bo'lmasa edi, albatta, men ansorlardan birlari bo'lar edim. Agar butun insonlar bir vodiya borsalar, siz ansorlar esa, boshqa vodiya borsangiz, albatta men sizlar turgan vodiya borar edim. Boshqa odamlar bu g'animatlar - qo'ylar, sigirlar, tuyalar bilan borganida, sizlar esa Rasululloh bilan borishlaringizga rozi emasmisizlar?!"

Ansori kirom Janobimiz sollallohu alayhi va sallamning bu so'zlarini eshitib, juda ham sevinishdi va jo'shib: "Rozimiz!" deyishdi.

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qilib so'radilar: "Aytganlarim borasida sizlar nima deysizlar?"

Ansori kirom bunday deb javob berishdi: "Ey Allohning Rasuli! Siz bizni zulmat ichida topdingiz, Alloh taolo Siz sababli bizni nurga chiqardi. Siz bizni jahannam yoqasida ko'rdingiz, Alloh taolo Siz sababli bizni qutqardi. Siz bizni zalolatda topdingiz, Alloh taolo Siz sababli hidoyat berdi. Biz ham Alloh taoloni Rabbimiz, Islomni dinimiz va Sizni sollallohu alayhi va sallam Payg'ambarimiz deb qabul qildik va rozi bo'ldik. Ey Allohning Rasuli sollallohu alayhi va sallam! Halolning kengligida istaganingizni qilavering". Keyin Janobimiz sollallohu alayhi va sallam iltifot qildilar: "Allohga qasam! Agar sizlar bu aytganlaringizdan boshqa narsani, ya'ni, Siz qavmingizdan hijrat qilib biz tomon keldingiz, biz Sizni bag'rimizga bosdik; Sizni qavmingiz yolg'onchiga chiqardi, shu holatda biz Sizni tasdiq qildik; Siz ozchilik va yordamsiz ekaningizda biz yordam berdik; Sizdan insonlar rad qilib, qabul qilmagan masalalarni biz Sizdan qabul qildik, deganlaringizda ham sizlarni tasdiq qilgan bo'lar edim".



Ansori kirom esa: "Minnat, ikrom, fazlu karam Alloh va Uning payg'ambarinikidir! Bizning va bizdan boshqalarning haqlari..." deb so'zlarini tamom qilmasdan yig'lab yuborishdi. Ko'p uzoq yig'lashdi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam ham ansorlar bilan birga yig'ladilar.

Keyin ulardan rozi bo'ldilar.

Ular Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga sohib edilar. Bu esa barcha molu dunyodan ustun, fazilatli va havas qilishga arzigulik edi.

## **HAZRATI ALI ROZIYALLOHU ANHU UCHUN YIG'LASHLARI**

Ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Janobimiz sollallohu alayhi va sallam, Ali roziyallohu anhu va men Madinai munavvaraning bo'ston va bog'lari joylashgan yerga bordik. U joydagi bir bog'chaga kirdik. Hazrati Ali roziyallohu anhu: "Yo Rasululloh! Bog'cha qanday ham go'zal ekan", dedi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat hildilar:

"Jannatdagi sening bog'chang bundan ham go'zaldir!" Keyin qo'llari bilan muborak bosh va soqollariga ishorat qilib, yig'lay boshladilar - "Nega yig'layapsiz?" deb so'radik. Shunda Janobimiz sollallohu alayhi va sallam: **"Toki men bor ekanman, qavming qalblaridagi kinu adovatni izhor qila olmaydilar" dedilar.** ("Majmuz-zavoid", 9/118).

## **MUSULMON BO'LGAN OTA-O'G'IL HOLATIGA YIG'LASHLARI**

Imron ibn Husayndan rivoyat qilinadi: «Bir kuni qurayshiyalar otam huzuriga kelishdi. Ular otamni hurmat qilishar va o'zlarining kattalari deb bilishar edi. "Biz uchun u odam (Muhammad sollallohu alayhi va salam) bilan gaplashib qo'y! U bizning olihalarimizni haqorat qilyapti", deb so'z boshlashdi ular».

Barchalari to'planib, bir kuni Janobimiz sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelishdi va kulbalarining eshigi yaqiniga o'tirishdi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam otam Husaynni nazarga olib, bizga iltifot qildilar: "Shayxga joy bo'shatinglar!"

Men ham, boshqa ashob ham otamni juda yomon ko'rar edik. U gapira boshladi: "Sen haqingda eshitganim u so'zlar nima? Sen olihalarimizni haqorat qilayotgan emishsan, holbuki, otang bu borada haqni himoya qiladigan, yaxshi bir kishi edi".

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam:

"Ey Husayn! Albatta, mening otam va sening otang otashdadirlar! - dedalar. So'ngra: - Ey Husayn! Nechta ma'budga sig'inasan?" deb so'radilar.

Husayn:

"Yerdagi bitta va ko'kdagi yettitaga", deb javob qildi.

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:  
"Senga biror zarar kelsa, qay biriga duo qilasan?"  
"Ko'kdagiga".

Yana savol berdilar:  
"Mulking talofat ko'rsa, qay biriga duo qilasan?"  
"Ko'kdagiga".

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar:  
"Senga faqat va faqat Allohga ibodat qilish vojibdir! Holbuki, sen Unga shirk qo'shyapsan. Shukrda sen Uni rozi qilyapsanmi yoki senga g'olib bo'lishidan qo'rqyapsanmi?"  
"Yo'q, bulardan hech biri emas, - dedi Husayn va so'zida yana davom etdi: - Men Sen kabi so'zlay olmasligimni tushunib yetdim".

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam iltifot qildilar:  
"Ey Husayn! Musulmon bo'lgin, omonlik topasan!"

"Mening qavmim va urug'-aymog'im bor. Ularga nima deyman?"  
"Allohim! Ishlarim to'g'ri bo'lishi uchun Sening hidoyatingni so'rayman. Allohim, menga foyda beradigan ilmimni orttir", deb aytgin».

Husayn bu duoni o'qidi. Musulmon bo'lib o'rnidan turdi. Men otamning hurmati uchun oyoqqa turdim. Uning boshi, qo'l-oyoqlarini o'pdim.

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam bu xolatni ko'rib, yig'ladilar va: "Husaynning o'g'li Imron qilgan ishga yig'layapman. Husayn ichkariga kofir hoida kirganida Imron o'rnidan turmadi, hattoki u tomon qayrilib ham qaramadi. Husayn musulmon bo'lganida esa uning haqqiga rioya qildi.

Imronning bu harakatidan to'lqinlanib, yig'ladim" - dedilar.  
Husayn ketmoqchi bo'lganida Janobimiz sollallohu alayhi va sallam ashoblariga iltifot qildilar:  
"O'rinlaringizdan turib, Husaynni uyigacha kuzatib qo'yingiz!"

Husayn tashqariga chiqqan edi, qurayshiyalar uning bu holatidan jahllari chiqdi va to'ng'illab haqorat qilishdi. Keyin qaytib ketishdi".

## **UMMATLARI UCHUN YIG'LASHLARI**

Anas roziyallohu anhu rivoyat qiladi:  
«Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzurlarida edik. Shunday tabassum qildilarki, hatto tishlari ko'rindi".

Umar roziyallohu anhu so'radi: "Yo Rasululloh, nega kuldingiz?"

Payg'ambarimiz alayhissalom dedilar: "Ummatimdan ikki kishi Robbul-azza huzurida tiz

cho'ktirilgan holda hisob qilinardilar. Ulardan biri: "Ey Rabbim! Bu birodarimdan mening haqqimni ol!" deydi. Alloh taolo deydi: "Birodaringning haqqini ber!"

Ikkinchisi deydi: "Ey Rabbim! Mening yaxshilik va savoblarimdan hech narsa qolmadi". Birinchisi deydi: "Ey Rabbim! Gunohlarimdan unga yukla".

Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ovoz chiqarib yig'ladilar". Keyin Nabi sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Bu o'sha buyuk Kun uchundir. U Kun kishi o'zining gunohlari yuklatiladigan boshqa kishiga muhtoj bo'ladi! Haqqini talab qilgan kishiga Alloh taolo: "Boshingni ko'targin! Jannatlarga qara!" deydi.

U kimsa boshini ko'tarib: "Ey Rabbim! Kumushdan shaharlar, tillodan saroylar ko'ryapman. Yana yoqutlar bilan bezatilgan...Bular qaysi payg'ambarniki yoki qaysi siddiqniki yoxud qaysi shahidniki?" deb so'raydi.

"Kim bahosini bera olsa, o'shaniki!" deydi Alloh taolo. U kishi yana so'raydi: "Ey Rabbim! Bularning bahosini berishga kimning qurbi yetadi?"

Alloh taolo deydi: "Sening". Boyagi kimsa: "Nima qilib?" deb so'raydi. Alloh taolo deydi: "Birodaringni kechirishing bilan!"

U kishi: "Ey Rabbim! Birodarimni kechirdim", deydi. Shunda Alloh taolo: "Birodaringning qo'lidan ushla! Ikkovingiz jannatga kiring!" deydi.

Keyin Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam so'zlarida davom etib: **"Allohdan qo'rqing! Taqvo qiling! Birodarlaringiz orasini isloh qiling! Aniqki, Alloh taolo Qiyomat kuni mo'minlarning orasini isloh qilib, to'g'rilaydi"** dedilar ("Kanzul-umma ", 8873).

Janobimiz sollallohu alayhi va sallamni ummatlaridan bir kishining og'ir vaziyatda qolishi yig'latgan edi. Qiyomat kuni Alloh taolo huzurida ummatlari tushadigan hol uchun yig'ladilar. Ovoz bilan yig'ladilar... Sizga, ey seviklimiz Rasululloh, koinot zarralari, dengizlar ko'pigi, daraxtlar bargi, yomg'iru qor tomchilari, quyoshning alvon nurlari, nabotot mevalari adadicha salotu salomlar bo'lsin!

## **TIRIKLAY KO'MILGAN QIZLAR UCHUN YIG'LASHLARI**

Vaziyn roziyallohu anhu rivoyat qiladi: "Bir odam Janobi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga keldi va so'zlay boshladi: "Yo Rasululloh! Biz jaholat ahli edik. Butlarga sig'inar edik. Va qizlarimizni tiriklay ko'mar edik. Mening bir qizim bor edi. Gapga tushunib, chaqirsa, javob beradigan bo'lib qolgan edi. U mening ovozimdan juda xursand bo'lardi. Bir kuni yonimga chaqirib, orqamdan ergashtirdim. Oilam va ahlimdan uzoq bo'lmagan bir quduq yoniga boshlab bordim. Keyin sevimli qizimning qo'lidan tortib, quduq ichiga otib yubordim. Uning so'nggi so'zlari "Otajon, otajonim!" deb qolishi bo'ldi".

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yig'lay boshladilar. Uzoq yig'ladilar. Atroflarida o'tirganlardan biri haligi odamga: "Sen Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni

g'amgin qilding!" dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Unga tegmanglar! U o'zi uchun muhim bir narsa haqida so'ramoqchi", - dedilar. Keyin boyagi odamga qarab: - "Voqeani qaytadan aytib ber!" dedilar. U odam yana bir bor so'zlab berdi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yana yig'lay boshladilar. hatto ko'z yoshlari soqollarini ho'l qilib yubordi. Keyin bunday dedilar: "Alloh taolo johiliyat zamonida qilingan barcha gunohlarni kechirdi. Sen amalingni boshqatdan boshla!" (*Dorimiy, 2*).

## QUR'ONI KARIM O'QILGANIDA YIG'LAGANLARI

Abdulloh ibn Mas'uddan roziyallohu anhu rivoyat qilinadi:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Menga Qur'on o'qib ber!" dedilar. "Ey Allohning Rasuli! Men Sizga Qur'on o'qib beraymi? Axir Qur'on Sizga nozil bo'lgan-ku?" dedim men. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Ha, shunday. Ammo men boshqadan eshitishni yaxshi ko'raman", deb marhamat qildilar».

Ibn Mas'ud roziyallohu anhu davomida deydilar:

«Niso surasini ochdim. Va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga o'qiy boshladim:

فَكَيْفَ إِذَا جِئْنَا مِنْ كُلِّ أُمَّةٍ بِشَهِيدٍ وَجِئْنَا بِكَ عَلَىٰ هَٰؤُلَاءِ شَهِيدًا ﴿٤١﴾

"(Ey Muhammad (alayhissalom), **Biz har bir ummatdan** (o'sha ummatning payg'ambarini) **guvoh keltirganimizda va Sizni ana o'shalarning** (barchalari) **ustida guvoh qilganimizda** (insonlarning holi) **qandoq bo'lur?!**)» (41) degan oyatga kelganimda Nabi sollallohu alayhi va sallamning ko'zlaridan yoshlar oqayotganini ko'rdim" (*bir oz farqli lafzlar bilan Buxoriyning "Sahih"ida ham kelgan, 4662; Ahmad, "Musnad", 3434*).

## NEVARALARI HUSAYN ROZIYALLOHU ANHUNING SHAHID BO'LISHIGA YIG'LASHLARI

Ummu Salama roziyallohu anhu onamizdan rivoyat qilinadi:

«Bir kuni Allohning elchisi sollallohu alayhi va sallam uyimda edilar. "Yonimga hech kim kirmasin!" deb farmon qildilar. Ichkariga Husayn kiribdilar. Men Rasulullohning muborak qalblari to'lib yig'laganlarini eshitdim. Ichkariga kirsam, Husaynni bag'rilariga bosib, boshini silar va yig'lar edilar.

"Allohga qasam, Husaynning qachon kirganini bilmay qolibman", dedim men. Rasululloh dedilar:

"Jabroil alayhissalom hozir biz bilan, shu yerdalar. Mendan: "Husaynni sevasizmi?" deb so'radi. "Dunyoda albatta!" deb javob berdim. Shunda Jabroil alayhissalom: "Aniqki, ummatingiz Husaynni Karbalo degan joyda shahid etadilar!" deb aytdi. Keyin o'sha joyning tuprog'ini menga ko'rsatdi".

Yillar o'tib, Imom Husayn shahid etilishlarini eshitgan zamon: "Bu joyning nomi nima?"

deb so'radilar. "Karbalo!" deyildi. Shunda: "Alloh va Rasuli rost so'zlaydi! "Karb" – g'am va "Balo" -balo, deb qo'ydi»- Boshqa bir rivoyatda bunday keladi:

"Allohning Rasuli to'g'ri so'zlaydilar! "Karb" – g'am va "balo" - balo tuprog'i!" (*"Kanzul-umma"*, 37669).

## **ASHOBI SUFFA BILAN BIRGA YIG'LASHLARI**

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Kulasizlar-u, yig'lamaysizlar!" oyati tushganida Ashobi suffa: **"Inna lillahi va inna ilayhi roji'un"** (*Baqara surasi, 157-oyat*), deyishdi. Keyin yig'lay boshlashdi, hatto yonoqlari ho'l bo'ldi. Ularning yig'ilganlarini eshitgach, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ham yig'lay boshladilar. Va bunday dedilar:

**"Allohdan qo'rqib yig'lagan kimsa jahannamga kirmaydi! Alloh taologa ma'siyat va gunoh qilishda davomli bo'lgan kimsa esa jannatga kirmaydi! Agar sizlar hech gunoh qilmaganingizda Alloh taolo, albatta, sizlarni ketkazib o'rningizga kechirishi va rahm qilishi uchun gunohlariga darhol tavba qiladigan qavmni keltirar edi. Albatta, Alloh kechiruvchi va o'ta rahmli Zotdir"** (*Qurtubiy tafsiri, 17-sahifa, 112. "Dorul fikr", Bayrut, 1415h.*)

## **ONA VA OTALARI UCHUN YIG'LASHLARI**

Hazrati Oyisha roziyallohu anho onamiz rivoyat qiladilar: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga Vado hajini tugatdik. Tuyada, mening orqamda o'tirgan hollarida borar edik. U Zot yig'lay boshladilar. Juda ham qayg'uli yig'ladilar. Men ham yig'lab yubordim. So'ng Allohning Rasuli tuyadan tushdilar, jilovini qo'limga berib: "Ey Humayro! Ushla..." dedilar. Tuyadan o'ngga tomon qarab bordilar. Uzoq muddat ko'rinmay qoldilar. Keyin yonimga sevinchli va tabassum bilan qaytib keldilar. Men u Zotga: "Ona-otam sizga fido bo'lsin, ey Allohning Rasuli! Yonimdan ketayotganingizda hazin, g'amgin edingiz, qaytganingizda sevinchli va tabassumli ekaningizni ko'rdim. Nima bo'ldi, yo Rasululloh?" dedim. Bunga javoban Janobimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Onam Ominaning qabri yoniga bordim. Rabbim Allohdan onamning tirilishini so'rab duo qildim. Alloh onamni tiriltirdi, onam menga imon keltirdilar..."

## **SHUKR QILGUVCHI BANDA BO'LISH UCHUN YIG'LASHLARI**

A'to ibn Abu Raboh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Bir kuni Oyisha roziyallohu anhu onamiz huzurlariga kirib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning eng ajib holatlari haqida gapirib berishlarini so'radim. Hazrati Oyisha roziyallohu anhu onamiz yig'lab yubordilar va bunday so'z boshladilar:

"Qaysi birini aytib beray, barcha hollari ajoyib edi. Bir kecha yonimga keldilar. Birga yotoqqa kirdik. Badanlarimiz bir-biriga tegib turardi. "Ey Abu Bakrning qizi! Men endi Rabbimga ibodat qilayin", dedilar. Men: "Sizga yaqin bo'lishni men juda yaxshi ko'raman", dedim va u Zot o'rinlaridan turdilar, Borib meshdan tahoratga suv oldilar. Tahorat olayotib, ko'p suv ishlatmadilar. Keyin namozga turdilar. Shu holda yig'lay boshladilar. hatto ko'z yoshlari ko'kraklariga oqdi. Rukuga bordilar, yig'ladilar. Sajdaga

bordilar, yig'layverdilar. Sajdadan muborak boshlarini ko'targanlarida ham yig'layotgan edilar. O'sha kecha faqat shunday o'tdi. Bilol roziyallohu anhu kelib namozga azon aytguniga qadar yig'idan to'xtamadilar. "Ey Allohning Rasuli! Nega yig'laysiz? Sizni yig'latgan nima? Sizning avvalgi va keyingi barcha gunohlaringiz kechirilgan-ku?" deb so'radim.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga: "Shukr qiluvchi bandalardan bo'lmayinmi? Axir Alloh taolo:

إِنَّ فِي خَلْقِ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ وَأَخْتِلَافِ اللَّيْلِ وَالنَّهَارِ لَآيَاتٍ لِأُولِي الْأَلْبَابِ ﴿١٩١﴾ الَّذِينَ يَذْكُرُونَ اللَّهَ قِيَمًا وَقُعُودًا وَعَلَىٰ جُنُوبِهِمْ وَيَتَفَكَّرُونَ فِي خَلْقِ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ رَبَّنَا مَا خَلَقْتَ هَذَا بَطْلًا سُبْحَانَكَ فَقِنَا عَذَابَ النَّارِ ﴿١٩٢﴾

**"Albatta, osmonlar va Yerning yaralishida hamda kecha bilan kunduzning almashib turishida ahl egalari uchun bir Yaratuvchi va Boshqarib turuvchi Zot borligiga oyat-alomatlar bordir. Ular turganda ham, o'tirganda ham, yotganda ham Allohni eslaydilar hamda osmonlar va Yerning yaratilishidan tafakkur qilib (deydilar) "Parvardigoro, bu (borliq)ni behuda yaratganing Yo'q! Sen (behuda biron ish qilish aybidan) Poksan! O'zing bizni jahannam azobidan asragil!" (Oli Imron surasi, 190-191-oyatlar mazmuni) oyatlarini nozil qilgan-ku!" dedilar".**

## QABRGA HOZIRLIK UCHUN YIG'LASHLARI

Barro ibn Ozib roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

«Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga edik. U Zot bir jamoani ko'rdilar va: "Ular nimaga to'planib turishibdi?" deb so'radilar. "Qabr qazish uchun", deb javob berishdi. Shu payt Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir hayajonlandilar. So'ngra ashoblaridan tezda ayrilib, haligi jamoa tomon bordilar va qabr yoniga o'tirdilar. Nima qilyaptilar ekan, deb u Zotga qaradim. Muborak boshlari ikki qo'llari orasida ekanini ko'rdim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yig'lar edilar. Hatto ko'z yoshlari tomchilab tuproqni ho'l qilmoqda edi.

Keyin bizga qaradilar va: "Ey birodarlarim! Shunday bir kun uchun hozirlik ko'ring!" dedilar» ("Musnadi Ahmad", 1/786).

## QUYOSH TUTILGANIDA YIG'LASHLARI

Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hayotlik chog'larida bir kuni quyosh tutildi. U Zot namoz o'qidilar. Qiyomda uzoq qoldilar. Keyin rukuga bordilar. Rukuda ham uzoq qoldilar. Keyin muborak boshlarini ko'tardilar. Yana uzoq qoldilar...

(Shu'ba (roziyallohu anhu): "Men yaxshilab kuzatib turdim, sajdada ham uzoq qoldilar", deydi.) Sajda qilgan holatlarida yig'lay boshladilar, keyin o'sha holatda: "Yo Rabbim! Bu bilan meni azoblama, men ular orasidaman", deb duo qildilar.

Namozdan so'ng bunday dedilar:

**"Menga jannat ko'rsatildi. Shunday ko'rsatildiki, agar qo'limni cho'zsam, mevalaridam uza olardim. Va jahannam ham ko'rsatildi. Shunday ko'rsatildiki, uning issig'ligi sizga zarar bermasin deb pufladim. Jahannamda ikki tuyamni o'g'irlagan o'g'rini ko'rdim. (Allohning rasuli Ka'baga qurbonlik uchun hadya qilgan ikki tuyalarini mushriklardan biri o'g'irlab ketgan edi.) Jahannamda hojilar molini o'g'irleydigan Bani Da'da birodarini ko'rdim. (O'sha odamdan so'ralganida, "Bu Mihjanning ishi", deb javob qiladi.) "Jahannamda uzun bo'yli, qizilga moyil qora xotinni ko'rdim. Bu xotin uyida bir mushukni bog'lab qo'yib, unga yegulik ham, suv ham bermagan. hatto yerdagi xasharotlarni ham yeyishga qo'ymagan. Shu tariqa o'limiga sabab bo'lgani uchun azoblanmoqda edi... Albatta, quyosh va oy birovniig o'limida yoki tug'ilishida tutilmaydi. Lekin ular Allohning belgilaridan ikki belgidir. Bas, agar ulardan biri tutilsa (yoki: "ularga boshqa bir shunga o'xshash holat yetsa", dedilar chamamda), darhol Allohning zikriga shoshilinglar!"** (Ahmad, "Musnad", 6473).

## **NAMOZDA YIG'LASHLARI**

Abdulloh ibn Shixxiyr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hazratlari huzurlariga bordim. Namoz o'qiyotgan ekanlar. Yig'layotganlari sababli muborak ko'ksilaridan qaynashdagiga o'xshash ovoz eshitalardi" ("*Riyozus-solihiyin*", 449-hadis).

## **HALOK BO'LGAN QAVMLAR MAKONIDA TAFAKKUR VA KO'ZYOSH**

Janobi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ashoblari bilan birga Tabukka ketayotib, Samud qavmining diyori hijrdan o'tdilar. Shunda ashoblariga: "Azob ko'rayotgan bu qavm makoniga yig'lamasdan kirmanglar! Agar ulardan ibrat olib, yig'lay olmasalaring, ularga yetgan azob sizlarga ham kelmasin uchun u joylardan (tez) qaytinglar!" deb marhamat qiddilar. (*Buxoriy*, "*Sahih*", 415)

## **BADRDA YIG'LASHLARI**

Anas roziyallohu anhu rivoyat qiladi: "Umar ibn Xattob roziyallohu anhu bunday deganlar:

«Badr kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam mushriklar tomon qaradilar, ular ming kishi edi. Biz esa uch yuz o'n uch kishi edik. So'ngra qibla tomonga qayrildilar. Muborak qo'llarni ko'tarib, Rabbilariga yolvordilar: "Allohim! Menga aytgan va'dangni keltir. Allohim! Bergan va'dangni keltir. Allohim! Agar bu Islom jamoasini halok qilsang, yerda Senga ibodat qiluvchilar qolmaydi."

Alloh taolo oyat nozil qildi:

إِذْ تَسْتَغِيثُونَ رَبَّكُمْ فَاسْتَجَابَ لَكُمْ أَنِّي مُمِدُّكُمْ بِالْفِ مِّنَ الْمَلَائِكَةِ مُرَدِّفِينَ ﴿٩١﴾

**"O'shanda sizlar Parvardigoringizdan madad tilaganingizda, U sizlarga ijobat qilib: "Men sizlarga ketma-ket keladigan ming farishta bilan madyad berurman", dedi" (Anfol surasi 9-oyat mazmuni).**

Oyat ortidan farishtalar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga yordamga kelishdi. Ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Urush tugadi, asirlar qo'lga olindi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Abu Bakr bilan Umar roziyhllahu anhumdan: "Bu asirlar haqida nima hukm berasizlar?" deb so'radilar.

Abu Bakr javob qildi:

"Ey Allohning Rasuli! Ular amakilaringiz bolalari va qarindoshlaringizdir. Bular evaziga qarshi tomondan fidya olganingiz yaxshi deb o'ylayman. Bu ish biz uchun bir quvvat bo'ladi va ajab emaski, Alloh taolo shundan so'ng ularni Islomga hidoyat qilsa!"

Keyin Nabiy sollallohu alayhi va sallam Umar roziyallohu anhudan so'radilar: "Ey Ibn Xattob! Siz nima deysiz?"

Shunda Umar roziyallohu anhu: "Yo'q, Allohga qasam! Ey Allohning Rasuli! Men Abu Bakr roziyallohu anhunging so'zlariga qo'shilmayman. Bo'yinlaridan urishimiz (chopishimiz) uchun ularni bizga topshiringizni to'g'ri deb bilaman. Uqayl roziyallohu anhunging o'rniga chopish uchun Ali roziyallohu anhuga birortasini bering... Falonini falonchiga bering, ba'zi kishilarimiz o'rniga bo'yinlaridan kessinlar. Chunki bu asirlar kufurning boshida turganlar va ilk raqiblarimizdir!" deb javob berdi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Abu Bakr roziyallohu anhunging fikrini xush ko'rdilar, Umar roziyallohu anhunging taklifini qabul qilmadilar.

Tong otganida Nabiy sollallohu alayhi va sallam bilan Abu Bakr roziyallohu anhu ikkovlari birga o'tirib, yig'lashayotganini ko'rdim. "Yo Rasululloh! Nega yig'layapsizlar, menga ayting. Men ham birga yig'layin!" deb so'radim.

Nabiy sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar: "Sen ham yig'la! Birodarlaridan fidya olib, asirlarni ozod qilishlari uchun aytilgan taklifga sen ham yig'la! Haqiqatan ularning azoblari bundan ham og'ir ekani menga bildirildi".

Alloh taolo oyatlarni nozil qildi:

لَوْلَا كِتَابٌ مِّنَ اللَّهِ سَبَقَ لَمَسَّكُمْ فِيمَا أَخَذْتُمْ عَذَابٌ عَظِيمٌ ﴿٦٨﴾ فَكُلُوا مِمَّا غَنِمْتُمْ حَلَالًا طَيِّبًا

وَاتَّقُوا اللَّهَ إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَّحِيمٌ ﴿٦٩﴾

**"Agar Alloh tomonidan (bilmasdan qilgan xatoni kechirishligi) yozib qo'yilmaganida edi, albatta sizlarga (tovon) olganinglar sababli ulug' azob yetgan bo'lur edi.**



**Endi o'lja qilib olgan narsalaringizni halol-pok holda yeyaveringlar va Allohdan qo'rqinglar! Albatta Alloh Mag'firatli, Mehribondir"** (*Anfol surasi, 68-69-oyatlar, mazmuni*).

Alloh taolo o'ljani shu tarz halol qildi (*Muslim, 1763; bir oz farqli lafzlar bilan Termiziyda ham keltirilgan, 3081*).

## YAQIN QARINDOSHLARI UCHUN YIG'LASHLARI

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«**Va yaqin qarindosh-urug'laringizni** (Allohning azobidan) **ogohlantiring!"** (*Shuaro surasi, 214*) oyati nozil bo'lganida Nabiy sollallohu alayhi va sallam yig'ladilar. Keyin yaqin qarindoshlarini jamlab, ularga: **"Ey Abdumannof o'g'illari! Nafsingizni jahannam alovidan qutqaring! Ey Abdulmuttalib o'g'illari! Nafsingizni jahannam olovidan qutqaring! Ey Hoshim o'g'illari! Nafsingizni jahannam olovidan qutqaring!"** deb xitob qildilar. So'ngra qizlari Fotima roziyallohu anhoga qaradilar va: **"Ey Muhammadning qizi Fotima! Nafsingizni jahannam olovidan qutqar! Alloh huzuridagi hech bir azobdan sizlarni qutqara olmayman. Faqat sizlarga yaqinligim bor, tez orada bu yaqinlikdan so'ralaman!"** dedilar».

## XUTBADA YIG'LASHLARI

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

"Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xitob qilib: **"Ikki buyuk narsani unutmanglar - jannat va jahannamni!"** dedilar va yig'lay boshladilar. Hatto ko'z yoshlari muborak soqollarini ho'lladi. So'ngra so'zlarini davom ettirdilar: - **Muhammadning nafi izmida bo'lgan Allohga qasam! Agar sizlar oxirat ishlaridan men bilganlarimni bilganingizda, albatta, tog'larga ketardingiz va boshlaringizga tuproq sochardingiz".**

## JA'FAR ROZIYALLOHU ANHU SHAHID BO'LGANIDA YIG'LAGANLARI

Asmo binti Umays roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi (bu ayol Ja'farning zavjasi edi): «Ja'far va boshqa sahobalar shahid bo'lishgan kuni men Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlariga bordim. O'sha kuni xamir tayyorlab, bolalarimni yuvintirib, xushbo'ylik surib, ozoda qilib qo'ygan edim. Nabiy sollallohu alayhi va sallam menga: "Ja'farning bolalarini olib kel!" dedilar. Ularni boshlab keldim. Nabiy sollallohu alayhi va sallam ularni erkaladilar, bo'y oldilar va yig'lab yubordilar. Men: "Yo Rasululloh! Ona-otam sizga fido bo'lsin! Sizni nima yig'latdi? Yoki Ja'far va birodarlari haqida biror xabar keldimi Sizga?" deb so'radim.

Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Albatta! Bu kun ular shahiddirlar!" - dedilar. So'ngra ahllariga chiqib bundoq dedilar: "Ja'farning oilasiga taom berishdan g'ofil qolmang! Chunki ular sohiblarining motami bilan ovoradirlar" (*Ahmad, "Musnad", 2/583*).

## **O'G'ILLARI IBROHIM VAFOTIGA YIG'LAGANLARI**

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'g'illari Ibrohim sakarotdalik (jon chiqar mahal) paytida yoniga kirdilar. Ikki ko'zlari yoshga to'ldi. Shunda Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu: "Siz ham yig'laysizmi, ey Allohning Rasuli?!" deb so'radilar. Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Ey Avf o'g'li! Bu bir ragmatdir!" - dedilar va boshqa tomonga o'tib, dedilar: - Albatga, ko'zlar yoshlanadi, qalb mazrun bo'ladi. Rabbimiz rozi bo'ladigan narsanigina aytamiz. Ey Ibrohim! Albatta, sening firoqingdan biz mahzunmiz"» (*"Riyozus solihiyin", 924*).

## **HAZRATI MUS'AB ROZIYALLOHU ANHUNING HOLIGA YIG'LASHLARI**

Hazrati Ali roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

«Biz Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bilan birga o'tirgan edik. Yonimizga seryamoq hirqali Mus'ab ibn Umayr keldi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam uni ko'rganlarida Makkadagi eski (boy-badavlat) holini eslab, yig'ladilar. So'ngra bunday dedilar: "Ertalab bir kiyim, peshindan keyin boshqa go'zal kiyim kiyadigan, dasturxoniga bir taomdan sung boshqasi qo'yiladigan, uylaringazga Ka'bapo'shdek jihozlarni to'shaydigan zamonlar keladi. O'shanda sizlarning holingiz nima bo'lar ekan?" Sahobalar roziyallohu anhum: "Ey Allohning Rasuli! Albatta, u kunlardagi holimiz bugungi kundagidan yaxshi bo'ladi. Chunki u vaqt tirikchilik zahmatlari bo'lmaydi. O'zimizni ibodat bilan butunlay mashg'ul qilamiz", deyishdi.

Shunda Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Aksincha, sizning bugungi holatingiz u kundagidan yaxshidir!" dedilar». (*Termiziy*).

## **HAZRATI HAMZA ROZIYALLOHU ANHU SHAHID BO'LGANIDAGI QAYG'ULI HOLLARI**

Rasuli Akram sollallohu alayhi va sallam yuzlari yarali, qalblari yarali holda Uhud shahidlarining dafnidan so'ng sahobalar bilan Madinaga qaytayotgan edilar. Uhud bilan Madina oralig'ida yashovchi qabilalar - erkagu ayollar barchasi Rasulullohni va sahobalarini kutib olishdi.

Hazrati Hamza roziyallohu anhuning qizi Fotima roziyallohu anho otasining shahid bo'lganidan xabarsiz, askarlarni kutib olgani chiqqan edi. Mujohidlar ko'ringach, otasini so'radi. Ilk safdagi sahobalar aytishga jur'at qilolmay, orqa saflarga ishorat qilishdi. Nihoyat, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamdan so'radi. "Bundan so'ng otang men bo'laman!" deb marhamat qildilar u Zot.

Bu so'zlardan otasi shahid bo'lganini bilib, yig'lay boshladi. Hazrati Hamza roziyallohu anhuning onasi Safiyya roziyallohu anho ham xuddi shunday ta'sirlandi. Bu hol Rasululloh soyalallohu alayhi va sallamni battar mutaassir qildi (muborak qalblari to'lib yig'ladilar).

## NABIRALARINING VAFOTIDA YIG'LASHLARI

Usoma ibn Zayd roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlariga qizlari hazrati Zaynab roziyallohu anhoning vafot qilgan o'g'li jasadi olib chiqildi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam uni ko'rib, ko'zlari yoshga to'ldi. Shu payt Sa'd ibn Uboda roziyallohu anhu so'radilar: "Ey Allohning Rasuli! Bu nimadir?" Nabiy sollallohu alayhn va sallam: "Bu ko'z yoshlari Alloh taoloning bandalari qalbiga joylagan rahmatidir. Alloh taolo marhamatli qullarinigina rahmat qiladi!" dedilar» ("*Riyozus-solihyn*", 923).

\*\*\*

Bir kuni Hazrati Abu Bakr roziyallohu anhu minbarda tik turgan holda yig'ladi va: «Alloh Rasuli sollallohu alayhi va sallam, o'tgan yili minbarda turib yig'ladilar va muborak og'izlaridan: **"Allohdan afv va ofiyat so'ranglar! Chunki kishiga yaqin va komil imondan so'ng ofiyatdan ham yaxshi bir narsa berilmagan" degan so'zlar to'kildi**", dedi» (Termiziy).

## VIDOLASHUV KO'Z YOSHLARI

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu rivoyat qiladi: "Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam u Zotga ona-otam va jonim fido bo'lsin, rihlatlarining xabarini berish uchun bizni olti kun avvalroq Hazrati Oyisha roziyallohu anho onamizning uylariga to'pladilar.

To'planganimizda bizga yuzlandilar va ko'zlaridan yosh oqa boshladi. So'ng bunday dedilar:

**"Marhabo, xush kelibsizlar! Alloh sizlarga hayot bersin! Alloh sizlarni himoya qilsin! Alloh sizlarga ko'mak bersin! Alloh sizlarni (moddiy va ma'naviy maqomda) baland qilsin! Alloh sizlarga hidoyat bersin! Alloh sizlarga (mo'l) rizq bersin! Alloh sizlarni muvaffaq qilsin! Alloh sizlarga omonlik bersin! Alloh sizdan amallaringizni qabul qilsin! Allohga taqvodor bo'lishingizni vasiyat qilaman! Men sizlarga Alloh tarafidan saylangan ochiq qo'rqituvchi va ogohlantiruvchiman. Ogoh bo'ling! Allohga nisbatan haddingizdan oshmang! Uning bandalariga va shaharlariga qarshi bosh ko'tarmang! Chunki Alloh taolo men va sizlar uchun: "Biz o'sha oxirat diyorini Yer yuzida zulmu zo'rovonlik va buzg'unchnlik qilishni istamaydigan kishilar uchun qilurmiz. Oqibat taqvo qilguvchi kishilarnikidir."** (Qasos surasi 83-oyat, mazmuni); **"Qiyomat Kunida Alloh sha'niga yolg'on so'zlagan kimsalarni yuzlari qora holda ko'rursiz. Yo jahannamda kibrli kimsalar uchun joy yo'qmi?!"** (Zumar surasi 60-oyat, mazmuni) deydi..." So'ngra Nabiy sollallohu alayhi va sallam so'zlarida davom etdilar: **"Ajal yaqinlashdi. Alloh taologa qaytish bor... Va Sidratul muntahoga... Va jannatul Ma'voga... Va ka'sul uvfoga... Va Rafiqul A'loga..."**

Biz: "Yo Rasululloh! G'assol kim bo'ladi?" deb so'radik.

Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Ahli baytimdan erkaklar. Yaqinlik jihatidan eng yaqin bo'lganlari", dedilar.

Biz so'radik: "Sizni nima bilan kafanlaylik?"

"Xohlasalaring, shu kiyimimga yoki yamaniy hullaga va yoki Misr oq matosiga", deb javob qildilar u Zot.

Biz yana so'radik: "Kim Sizga janoza namozini o'qisin?"

Nabiy sollallohu alayhi va sallam yig'ladilar. Biz ham yig'ladik. Keyin: "Bir oz kutinglar! Alloh taolo sizlarni mag'firat qilsin! Payg'ambaringiz sababli sizlarga xayrli mukofotlar bersin! Meni g'usl qildirib, kafanlaganingiz zahoti shu uyimdan qabr kavlab, yoniga yotqizinglar. Bir soat yonimdan tashqariga chiqib turinglar. Albatta, mening janozamni birinchi bo'lib, do'stim, suhbatdoshim Jabroil alayhissalom o'qiydilar. So'ngra Mikoil alayhissalom o'qiydilar. Keyin Isrofil alayhissalom undan so'ng o'lim farishtasi bilan uning askarlari o'qishadilar. Oxirida barcha farishtalar menga janoza namozini o'qishadi. Keyin sizlar navbat bilan jamoa-jamoa kirib, janoza o'qinglar va salom-taslimot aytinglar. faqat (ovoz chiqarib) yig'lab menga aziyat bermanglar! Shovqin bilan meni rohatsiz qilmanglar!"

Namozni birinchi galda ahli baytim erkaklar o'qishsin. Keyin sizlar o'qinglar. Sizlar bu yerda bo'lmagan ummatimga salomimni yetkazinglar! Qiyomat kuniga qadar dinimga kiruvchi va menga tobe' bo'ladigan kimsalarga ham salomimni yetkazinglar! Ularga aytgan salomimga sizlarni guvoh qilaman. Bu kundan e'tiboran qiyomatgacha dinimga va menga tobe' bo'ladigan barcha-barchaga salomimni ayganglar!"

Keyin biz so'radik: "Yo Rasululloh! Qaysi birimiz sizni qabrga qo'yaylyak?"

Nabiy sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Ahli baytim erkaklari hamda ko'pgina farishtalar meni qabrga qo'yadilar. Ular sizlarni o'zlaringiz ko'rmagan tarafdin ko'rishadi" (*"Majmuz-zavoid", 9-jild, 24-25-sahifa, 1451-hadis.*)

## **JANOBIMIZ SOLLALLOHU ALAYHI VA SALLAMNING VAFOTLARIDAN SO'NG SAHOBALARNING YIG'LASHLARI**

Janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan keyin musulmonlar og'ir iztirobda qolishdi. Sahobalarning bir qismi dahshatga tushishdi. Yig'lashdi. Kimlardir tik holatdan yig'ilib, turishga majol topmadi. Kimlardir tili tutilib, so'zlashga kuchi yetmay qoldi. Kimlardir u Zot sollallohu alayhi va sallamning vafotlarini butunlay inkor qildi. Hamma chuqur qayg'uga botgan edi. Hatto endi nima qilishlarini bilolmay qolishdi. Hazrati Umar roziyallohu anhuddek zot oyoqq a turib:

"Ba'zi munofiqlar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni vafot etdi deb gumon qilishyapti. U Zot o'lmadilar! Rabbilari huzuriga ketdilar! Muso ibn Imron qavmlaridan ayrilib, qirq kechaga Rabbilari huzuriga borganlaridek. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam albatta qaytib keladilar! U Zot sollallohu alayhi va sallamni o'ldi, deb da'vo qilgan kimsalarning qo'l-oyoqparini chopib tashlayman!" dedi.

Hazrati Umar roziyallohu anhu bu so'zlarini davomli takrorlardi. Shunda Abu Bakr roziyallohu anhu minbarga chiqdi. Alloh taologa hamdu sanolar aytdi va xutbasini davom ettirdi: "Ey insonlar! Kim Hazrati Muhammadga ibodat qilayotgan bo'lsa, (bilsinki) Muhammad vafot etdilar! Kim Alloh taologa ibodat qilayotgan bo'lsa, (bilsinki) Alloh taolo (azaliy va abadiy tirikdir)! U o'lmaydi!" deb ushbu oyatni o'qidilar:

وَمَا مُحَمَّدٌ إِلَّا رَسُولٌ قَدْ خَلَتْ مِنْ قَبْلِهِ الرُّسُلُ أَفَإِنْ مَاتَ أَوْ قُتِلَ انْقَلَبْتُمْ عَلَىٰ أَعْقَابِكُمْ وَمَنْ يَنْقَلِبْ عَلَىٰ عَقْبَيْهِ فَلَنْ يَضُرَّ اللَّهَ شَيْئًا وَسَيَجْزِي اللَّهُ الشَّاكِرِينَ ﴿١٤٤﴾

**"Muhammad faqat bir payg'ambardir, xolos. Undan ilgari ham payg'ambarlar o'tgandir. Bas, agar u vafot qilsa yoki o'ldirilsa, ortingizga qaytib ketasizlarmi?! Kimda-kim ortiga qaytib ketsa, Allohga biron ziyon yetkaza olmas, (balki faqat o'ziga zarar qiladi). Alloh esa (yo'llaridan qaytmay) shukr qilguvchi bandalarni munosib mukofotlaydi"** (*Oli Imron surasi 144-oyat, mazmuni*).

Roviy davom etib deydi:

"Allohga qasam! Hazrati Abu Bakr roziyallohu anhu bu oyati karimani o'qiguniga qadar insonlar uning Rasulullohga nozil bo'lganini xuddi bilmagandek edilar. Abu Bakr roziyallohu anhu xutbasidan so'ng sahobalar roziyllohu anhum Nabiy sollallohu alayhi va sallamning vafotlariga aniq ishondilar" (*"Ruhul-bayon" tafsiri, 2/104*).

## HAZRATI ABU BAKR ROZIYALLOHU ANHUNING YIG'LASHI

Abu Said Xudriy roziyallohu anhu aytadi:

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xutba o'qidilar: "Alloh taolo bir bandasini dunyo bilan O'zining huzuridagi narsaga ixtiyorli qildi".

Bu so'zlarni eshitgan Hazrati Abu Bakr yig'lab yubordilar. Men o'zimcha Hazrati Abu Bakrni yig'latgan nima ekan, deb o'yladim. Agar Alloh taolo bir bandasini dunyo bilan O'zining huzuridagi narsani tanlashga ixtiyorli qilsa va u Alloh huzuridagini tanlasa, u banda faqat va faqat Nabiy sollallohu alayhi va sallam bo'lishlarini oramizdan Abu Bakr yaxshi bilgan ekan. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

"Ey Abu Bakr! Yig'lamang. Insonlar ichida suhbat va moli bilan menga eng ko'p ikromda bo'lgan kishi Abu Bakrdir. Agar men ummatimdan bir do'st tanlar bo'lsam, albatta, Abu Bakrni tanlar edim. Lekin Islom birodarligi va sevgisi bordir".

Abu Bakrning eshigidan tashqari, Masjidi Nabaviyga ochilgan eshiklarning barchasi yopildi (*Buxoriy. "Sahih", 446*).

## HAZRATI UMAR ROZIYALLOHU ANHUNING YIG'LASHLARI

Hazrati Anas roziyallohu anhu aytadi: «Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kirdim. U Zot yotgan ekanlar. Ostilaridagi bo'yraning iplari qattiq matodan edi. Yostiqlari esa ichiga xurmo daraxgining po'stloqlari solingan teri edi. Bir necha sahobalar u Zotning xuzurlariga kirishdi. Oralarida Hazrati Umar roziyallohu anhu ham bor edi. Bo'yraning qattiq iplari Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning vujudlarida chuqur iz qoldirgan edi. Buni ko'rib, Hazrati Umar roziyallohu anhu yig'lay boshladi. Janobimiz sollallohu alayhi va sallam:

"Ey Umar! Nimaga yig'layapsiz?" deb so'radilar.

"Allohga qasam! Bilaman (va ishonamanki) Alloh taolo huzurida Sizning darajangaz Kisro (Xisrav) bilan Qaysardan ham oliy va sharaflidir!

Ularning ikkovi ham boyliklari ichida g'arq. Sizni bu holatda ko'rib, yig'layapman", deb javob berdi Umari Foruq.

Shunda Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Dunyo ularniki, oxirat bizniki bo'lishini istamaysizmi, ey Umar!?" dedilar.

"Albatta xohlayman, ey Allohning Rasuli!" "Albatta, bu shundaydir!" deb tasdiqladilar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam» (*Ahmad, "Musnad", 1/196*).

### **HAZRATI USMON ROZIYALLOHU ANHUNI YIG'LATGAN HODISA**

Usmon ibn Affonning xizmatchisi aytadi:

«Hazrati Usmon roziyallohu anhu bir qabr ustiga borsalar, yig'lar edilar, hatto soqollari ho'l bo'lar edi.

"Jannat va jahannamni yodga olganingizda yig'lamaysiz, ammo qabr eslatilsa, yig'laysiz. Nega shunday?" deb so'rashdi. Javob qildilar:

"Chunki men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning: **"Qabr - oxirat manzillarining birinchisi. Kishi unda najot topsa, keyingi manzillar qulaydir. Agar unda najot topmasa, keyingi manzillar yanada qiyin, yanada shiddatlidir"**, deganlarini eshitganman".

Hazrati Usmon roziyallohu anhu so'zida davom etib, Payg'ambarimizdan eshitgan bir hadisni qo'shimcha qildi:

"(Oxirat olamida ko'rganim) manzaralarning hech biri qabrdek qo'rqinchli emasdi!"» (*Termiziy, 2230*).

### **HAZRATI ALI ROZIYALLOHU ANHUNI YIG'LATGAN HODISA**

Tabuk g'azotidan oldin Hazrati Ali roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelib, dedi:

"Yo Rasululloh! Men siz bilan birga urushga chiqmoqchiman."

Nabiy sollallohu alayhi va sallam ruxsat bermadilar. Bunga Ali roziyallohu anhu rozi bo'lmay, yig'lab yubordi. So'ng Nabiy sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar: "Ey Ali! Men bilan sening oramizdagi martaba Hazrati Muso alayhissalom bilan Hazrati Horun alayhissalom oralaridagi martaba kabi bo'lishini xoxlamaysanmi?! Faqat, mendan so'ng aslo payg'ambar kelmaydi" (*Ahmad, "Musnad", 2903*).

## HAZRATI OYISHA ROZIYALLOHU ANHU ONAMIZNI YIG'LATGAN HODISA

Hazrati Oyisha roziyallohu anho onamizdan rivoyat qilinadi:

«Men jahannam olovini yodga olib, yig'lab yubordim. Shunda Nabi sollallohu alayhi va sallam:

"Seni nima yig'latdi?" deb so'radilar.

"Jahannam olovini yodga olib, yig'ladim. Qiyomat kuni siz o'z axdingizni (oilangizni) yodga olasizmi?" deb so'radim.

Nabi sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar: **"Kimsa uch joyda boshqa bir kimsani yodga olmaydi: Tarozida, Kitobda, Sirotida... Tarozida turganida va (inson) amalining og'ir yoki yengil bo'lishini bilmagunicha hech kim boshqa biror kimsani xotirlamaydi; Kitob mahali, kishi amal daftarining o'ng qo'lidanmi, chap qo'lidanmi yoki ustidan beriladimi, bilmasidan (hech kim boshqa biror kimsani yodga olmaydi); Sirot mahali, jahannam ustidagi ko'prikdan o'tib olmagunicha (hech kim boshqa biror kimsani yodga olmaydi)"** (Abu Dovud, "Sunan ", 4128).

## HAZRATI FOTIMA ROZIYALLOHU ANHONING YIG'LASHLARI

Janobi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xastalıkları og'irlashganida goh-gohida hushlarini yo'qotardilar. Bundan juda g'amgin bo'lgan Hazrati Fotima baland ovozda: "Oh, otajonim, iztirobingiz!", deb yig'lardilar.

Shu holatda Janobimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qildilar:

"Endi otangaz hech qanday iztirobda qolmaydi!"

Sarvari Koinot sollallohu alayhi va sallam Janobimiz vafot etganlarida qizlari Fotima quyidagi so'zlarini aytib, o'zlaridagi g'am va qayg'uni ifoda etdilar:

"Ey Rabbimning da'vatini qabul qilgan Otajonim!

Ey Firdavs maqomi bo'lgan Otajonim!

Ey o'limidan Jabroilga xabar bergan Otajonim!"

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam dafn etilganlaridan so'ng Hazrati Fotima Anas roziyallohu anhuga bunday xitob qildilar:

"Ey Anas! Payg'ambaringiz uzra tuproq tortilishiga ko'nglingiz qanday rozi bo'ldi?"

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan so'ng Hazrati Fotima roziyallohu anhu quyidagi baytlarni ko'p-ko'p o'qib, sas chiqarmay yig'lar edilar:

**Payg'mbar mehri ila ungan qalbga ne bo'ldi?  
Ko'p zamondir hattoki bo'yin ololmay yig'lar...  
Boshimga nogoh shunday musibatlar keldiki,  
Kunduzlari tun bo'lur kimgaki kelsa agar...  
("Xulosatush-shuruh ", 44-sahifa).**

Janobimiz sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan olti oy o'ggach, Hazrati Fotima roziyallohu anho ham vafot etdilar.

**"Allohumma solli va sallim, alfu alfi solaatin va alfu alfi salaamin 'alaa sayyidinaa Muhammad, tibbil quluubi va davaaiha va 'aafiyatil abdaani va shifaaiha va nuuril absoori va ziyaaaha va 'alaa aalihiy va sohbihiy va sallim".**

*"Allohim! Sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga va oilalari va sahobalariga ming-ming salotu salomlar bo'lsin! U Zot qalblar tabibi va davosi, tanu jon ofiyati va shifosi, ko'zlar nuri va ziyosidirlar."*

**"Allohumma solli 'alaa sayyidinaa Muhammad bi'adadi avrooqil ashjaar va amvaajil bihaar va qotorootil amtoor va nag'amaatil atyaar va nuvaataatil asmaar fiy jamiy'il a'soori val aqtoor ilaa yavmil qiyaamah va 'alaa aalihiy va sohbihiy ajma'iyin".**

*"Allohim! Sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga va oilalari va sahobalariga qiyomat kunigacha barcha zamonlar va makonlarda bo'lgan daraxtlar bargi, dengizlar ko'pigi, yomg'ir tomchilari, qushlar nag'masi, hosilotlar urug'i adadlaricha salotu salomlar yubor".*

*(Salavot "Daloili xoyrot "dan olindi).*

## **MA'RIFATGA CHORLOVCHI KO'ZYOSHLAR**

Ikki olam sarvari, oxirzamon payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yig'lashlari, muborak ko'zlaridan yosh to'kishlariga sabab nima? Insoniyat komilligining timsoli qilib yaratilgan Payg'ambarimiz ham nahotki ko'zyosh to'kkan bo'lsalar?» kabi so'ngsiz savollarga ojiz banda javob topgisi keladi. «Payg'ambarimizni yig'latgan hodisalar» kitobini qo'lga odib, mutolaa qilsak, bunday savollarga javob topamiz. Musannif yozadi: «Inson ojizligini va Rabbiga sig'inishini ko'z yoshlari bilan ifoda qiladi. Ko'zyosh ojizlikka ishoradir. Ojizlik esa bandalik belgisidir. Ya'ni, Rabbining azamati qarshisida ojizligini e'tirof etish, kibr va g'ururidan xalos bo'lish demakdir». Ko'z yoshi insoniyatga xos ojizlik belgisidir. Jamiki islomiy manbalar etirof etishicha, Hazrati Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam yashirin yig'laganlar va yashirin yig'lashni tavsiya etanlar. Chunki, oshkora yig'iga kishining nafi va shayton aralashishi mumkin ekan. Yig'lash uchun ham shar'iy sabab bo'lishi lozim. Boborahim Mashrab yozadi:

***Matlabim bor noravo, men yig'lamay kim yig'lasin,  
Dard beribdir bedavo, men yig'lamay kim yig'lasin.  
Zulmati motamda qoldim bu xatarliq yo'l aro  
Bekasu berahnamo, men yig'lamay kim yig'lasin.***



Islomiy yo'ldan adashib, rahnamosiz qolish yig'lashning sabablaridan biridir. Yo'lda ketayotgan solik ham o'z rahnamosidan ayrilsa, bolasini yo'qotgan Ya'qub alayhissalom kabi zor yig'laydi:

***Sog'inib Yusufini yig'lamas Ya'qubi zor,  
To musofir bo'ldi Yusuf ibn Kan'on yig'ladi.***

Rahnamosiz qolish otadan ayrilgan o'g'il, farzand dog'ida kuygan otaning, dardidan ham ulug'roq. Demak, yig'i faqat yaqin kishisini yo'qotgandagina bo'lmaydi. Qorin-qursoq yo'lida tashvish chekib yig'lash noshar'iylik kasb etadi. Demak, yig'lash uchun ulug'roq sabab, asos bo'lishi kerak. Jaloliddin Rumi:

***«Rahmatam mavquf on hush guziho ast,  
Chum girist az bahri rahmat mavj xost...»***,

deb Alloh yo'lida yig'lamoqni ulug'laydi, Boborahim Mashrab ham yig'ilarning bexosiyatini farqlab ko'rsatadi.

Qo'lingazdagi risolada Payg'ambarimiz alayhissalomni yig'latgan hodisalar, sahobalar ko'zyoshlarining sabablari bayon qilingan. Toki ularning yo'lidan yurgan ahli sunna besabab ko'zyosh to'kmasin, faqat Alloh buyurgan maqbul holatlardagina yig'lasin. Bexosiyat yig'iga kibr, riyo, shaytoniy nafs va manfaat aralashishi mumkin ekan. Bu fikrlarning she'riy talqinni yana Shoh Mashrabning «Devon»idan topamiz:

***Oxir koring nechuk bo'lg'an, bu yo'lda bexabar yig'la,  
Hama Haq ichra jo bo'ldi, qo'pub shomu sahar yig'la.  
Agar Mahsharda go'rdin surro' bo'lub qo'pay dersan,  
Qadingni ham qilib dargohga bosh ur, beshtar yig'la.***

«Mabdai nur» asarida Mavlono Rumiyning «Masnaviyi sharif»i talqin qilinar ekan, bexosiyat yig'ining yana qator salbiy xususiyatlari aytib o'tiladi.

O'tkinchi dunyoning ham uchun emas, dil va oxirat qayg'usida emas, din va oxirat qayg'usida, Allohdan qo'rqib, mag'firatini umid qilib, yig'lagan qalblar, inshaalloh, saodat topajaklar.

**Hamidulloh Ubaydulloh o'g'li,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

Onlineda o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=842.0>  
Intenet uchun Noza tayyorladi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)  
2007